

**RAQAMLI IQTISODIYOT VA TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING
GLOBAL TENDENSIYALARINI O'RGANISH.**

Millat Umidi universitetining 2- kurs talabasi,

Jo'raxonov Javohir Jahongir o'g'li

javohirjoraxonov6@gmail.com

+998 (97) 827-24-24.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining global tendensiyalari hamda ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, raqamli platformalar va elektron tijoratning keng joriy etilishi biznes jarayonlarining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Maqolada raqamli texnologiyalar asosida yuzaga kelayotgan yangi biznes-modellar, startup ekotizimlarining rivojlanishi hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari yoritib beriladi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsion faollikka ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini takomillashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, global tendensiyalar, tadbirkorlik, innovatsion rivojlanish, startaplar, bulutli texnologiyalar, platformalar, biznes-modellar

Аннотация: В этой статье будут проанализированы глобальные тенденции становления и развития цифровой экономики, а также их влияние на предпринимательскую деятельность. Широкое внедрение современных информационных и коммуникационных технологий, искусственного интеллекта, больших данных, цифровых платформ и электронной коммерции приводит к трансформации бизнес-процессов. В статье будут освещены новые бизнес-модели, развивающиеся на основе цифровых технологий, экосистемы стартапов и механизмы повышения конкурентоспособности субъектов предпринимательства. Также на основе опыта развитых и развивающихся стран будет оценено влияние цифровой экономики на экономический рост, занятость и инновационную активность. Результаты исследования служат для научно-практических выводов об улучшении предпринимательской среды и обеспечении устойчивого экономического роста за счет развития цифровой экономики.

Ключевые слова: Цифровая экономика, цифровизация, глобальные тенденции, предпринимательство, инновационное развитие, цифровая

трансформация, электронная коммерция, стартапы, искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии, цифровые платформы, бизнес-модели, информационные и коммуникационные технологии, конкурентоспособность, экономический рост.

Annotation: This article analyzes the global trends in the formation and development of the digital economy and their impact on entrepreneurial activity. The widespread introduction of modern ICT, artificial intelligence, big data, digital platforms and e-commerce is leading to the transformation of business processes. The article will highlight new business models that are emerging on the basis of digital technologies, the development of startup ecosystems and mechanisms to increase the competitiveness of business entities. Also, based on the experience of developed and developing countries, the impact of the digital economy on economic growth, employment and innovative activity is assessed. The results of the study serve to draw scientific and practical conclusions on improving the entrepreneurial environment and ensuring sustainable economic growth through the development of a digital economy.

Keywords: Digital economy, digitization, global trends, entrepreneurship, innovation development, digital transformation, e-commerce, startups, artificial intelligence, big data, cloud technologies, digital platforms, business models, ICT, competitiveness, economic growth.

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda raqamli iqtisodiyot jahonda iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar va biznes shakllanishida markaziy o‘rin egallamoqda. Internet, mobil texnologiyalar, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar, bulutli hisoblash tizimlari va blokcheyn kabi raqamli vositalar nafaqat iste‘molchilarning kundalik hayotini o‘zgartirdi, balki korxonalar va davlatlarning iqtisodiy strategiyalarini qayta belgilaydi. Raqamli transformatsiya jarayonlari global bozor sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash va samaradorlikni oshirish yo‘lida strategik ustuvorlikka aylandi. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub’ektlari raqamli imkoniyatlardan foydalangan holda yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes-modellarni yaratib, iqtisodiyotning tezkor o‘zgaruvchan muhitida o‘sish istiqbollari kengaytirmoqda. Global miqyosda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari nafaqat yirik texnologik davlatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muhimdir. Raqamli infratuzilma va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali mamlakatlar tadbirkorlik salohiyatini oshiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va xalqaro raqobat maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning global tendensiyalarini chuqur tahlil etish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili: So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar hajmi va mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Tadqiqotlarning aksariyati raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga chuqur kirib borishi natijasida tadbirkorlik faoliyatining shakli, mazmuni va rivojlanish mexanizmlari tubdan o‘zgarayotganini ta’kidlaydi. Ilmiy manbalarda raqamli iqtisodiyot asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet infratuzilmasi, raqamli platformalar va ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiy faoliyat bilan izohlanadi. Bir guruh olimlar raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siriga e’tibor qaratib, uning iqtisodiy o’sish, mehnat unumdorligi va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, bozor shaffofligini oshirishi va yangi qiymat zanjirlarini shakllantirishi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi raqamli iqtisodiyot YAIM tarkibida muhim ulushni egallayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar elektron tijorat, raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali kichik va o‘rta biznesning global bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganini ta’kidlashadi. Bu jarayon tadbirkorlikdagi kirish to‘siqlarini kamaytirib, yangi ishtirokchilar uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va blokcheynning tadbirkorlik rivojiga ta’siri ham keng yoritilgan. Ushbu texnologiyalar biznes qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va operatsion samaradorlikni oshirish vositasi sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq xavflar — kiberxavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi va raqamli tafovut muammolari ham qayd etilgan.

Tadqiqotlar metodologiyasi: Raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishining global tendensiyalarini o‘rganishning mohiyati, qo‘llanish sohalari va samaradorligi haqida ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Shu bilan birga **tahliliy usul, solishtirma tahlil, induksiya va diduksiya, statistic tahlil, trend tahlil, korrelyatsion tahlil, swot tahlil, empirik va sistematik yondashuv** metodlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar: So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro tashkilotlar va tahliliy markazlar ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha **15 foizini** tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich pul ifodasida **15–16 trillion** AQSh dollariga teng bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning jahon xo‘jaligidagi salmog‘i yil sayin ortib borayotganini ko‘rsatadi. Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda bu ulush yanada oshib, global iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biriga aylanadi. Jahon miqyosida elektron tijorat bozori hajmi **5–6 trillion** AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, savdo operatsiyalarining tobora ko‘proq qismi

onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda dunyo aholining taxminan **60 foizi** internetdan foydalanadi, biroq **3 milliarddan** ortiq aholi hali ham internetga ulanmagan. Ushbu holat global miqyosda raqamli bo‘linish mavjudligini ko‘rsatib, raqamli tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanishda hududlar o‘rtasida katta tafovutlar borligini anglatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammo yanada keskin namoyon bo‘lmoqda. Jahon miqyosida yangi tashkil etilayotgan startaplarning katta qismi IT, raqamli xizmatlar, moliyaviy texnologiyalar va elektron savdo sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes subyektlarining **60–70 foizi** faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Bu esa biznes jarayonlarining tezlashuvi, xarajatlarning kamayishi va daromadlarning oshishiga olib kelmoqda.


Raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishining global tendensiyalarini o‘rganish afzallimklari: **Avvalo**, global tendensiyalarni o‘rganish orqali iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyotda elektron tijorat, raqamli moliyaviy xizmatlar, platforma iqtisodiyoti va sun‘iy intellekt kabi yo‘nalishlarning tez sur‘atlarda rivojlanayotgani aniqlanib, tadbirkorlar uchun istiqbolli biznes sohalari belgilanadi. Bu esa investitsion qarorlarni asosli qabul qilishga xizmat qiladi. **Ikkinchidan**, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik tendensiyalarini tahlil qilish biznes samaradorligini oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari avtomatlashtiriladi, xarajalar qisqaradi hamda vaqt tejaladi. Global tajribani o‘rganish tadbirkorlarga ilg‘or raqamli yechimlarni joriy etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini yaratadi. **Uchinchidan**, global tendensiyalarni o‘rganish tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Raqamli startaplar, yangi biznes modellar va onlayn platformalar asosida yaratilgan xizmatlar tadbirkorlik muhitini yanada faollashtiradi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, yoshlar va ayollarning tadbirkorlikka keng jalb etilishiga olib keladi. **To‘rtinchidan**, raqamli iqtisodiyot bo‘yicha global tajribani o‘rganish xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli platformalar orqali mahsulot va xizmatlarni chet el bozorlariga taklif etish soddalashadi, eksport salohiyati oshadi. Natijada, milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi kuchayadi. **Beshinchidan**, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik tendensiyalarini o‘rganish davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Statistik va tahliliy ma‘lumotlar asosida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali dasturlar ishlab chiqiladi. Bu esa barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi.

Raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishining global tendensiyalarini o‘rganish kamchiliklari: Birinchidan, **raqamli bo‘linish muammosi** eng asosiy kamchiliklardan biri hisoblanadi. Dunyoning ko‘plab


hududlarida internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, **raqamli savodxonlik va malakali kadrlar yetishmasligi** muhim muammo bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritish uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Biroq ko'plab tadbirkorlar va ishchi kuchi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Uchinchidan, **kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash muammolari** raqamli iqtisodiyotning muhim kamchiliklaridan biridir. Onlayn faoliyatning kengayishi bilan birga kiberhujumlar, ma'lumotlarning o'g'irlanishi va firibgarlik holatlari ham ko'paymoqda. To'rtinchidan, **raqobatning keskinlashuvi va yirik platformalarning ustunligi** kichik va o'rta biznes subyektlari uchun muammolar keltirib chiqarmoqda. Global raqamli platformalar bozorda ustun mavqega ega bo'lib, kichik tadbirkorlarning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Natijada bozorning monopollashuv xavfi yuzaga keladi. Beshinchidan, **huquqiy va tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi** raqamli tadbirkorlik rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotga oid qonunchilik tezkor texnologik o'zgarishlarga moslashishga ulgurmayapti. Oltinchidan, **ijtimoiy tengsizlik va bandlikka ta'siri** ham muhim kamchilik sifatida namoyon bo'lmoqda. Avtomatlashtirish va sun'iy intellektning keng joriy etilishi ayrim kasblarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, ishsizlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



1. Grafik. Faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik subyektlar to'g'risida ma'lumotlar. 2020- 2024 yillar.



2. Grafik. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ulushilari % da.

Takliflar: Yuqoridagi maqola yozish uchun izlanishlarimdan kelib chiqib, bir nechta takliflarni taqdim eta olaman. Birinchidan, **raqamli infratuzilmani rivojlantirish va teng kirish imkoniyatlarini ta'minlash** zarur. Internet tarmoqlari, mobil aloqa va raqamli platformalarga kirish imkoniyatini kengaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini barcha hududlarda rivojlantirish mumkin. Ikkinchidan, **raqamli savodxonlik va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish** muhim ahamiyatga ega. Global tendensiyalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, ta'lim muassasalarida IT, raqamli biznes va innovatsion texnologiyalar bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, **raqamli tadbirkorlik va startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish** tavsiya etiladi. Inkubatorlar, akseleratorlar, grantlar va ventur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali innovatsion biznes loyihalarning shakllanishiga zamin yaratiladi. To'rtinchidan, **huquqiy-me'yoriy bazani raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish** zarur. Raqamli savdo, elektron shartnomalar, ma'lumotlarni himoyalash va kiberxavfsizlik bo'yicha aniq va zamonaviy qonunchilik tadbirkorlik muhitining barqarorligini ta'minlaydi. Beshinchidan, **xalqaro hamkorlik va tajriba almashuvini kuchaytirish** muhim takliflardan biridir. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, qo'shma loyihalar va ilmiy-tadqiqotlar olib borish global tendensiyalarni samarali tatbiq etishga yordam beradi. Oltinchidan, **raqamli innovatsiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishni rag'batlantirish** lozim. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlar tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirib, yangi bozorlarni ochadi.

Xulosa: Men ushbu maqola ishimni yozganimdan kelib chiqqan xulosalarim raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishining global tendensiyalarini

o'rganishdan asosiy maqsadimiz zamonaviy biznesni rivojlantirishda inqilobiy vositalardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishining global tendensiyalarini o'rganish jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o'zgarishlarni chuqur anglash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, raqamli moliyaviy xizmatlar hamda platforma iqtisodiyotining kengayishi iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirib, tadbirkorlik faoliyatini yanada innovatsion va raqobatbardosh holga keltirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotdagi ulushini muntazam oshirib bormoqda va kichik hamda o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli tadbirkorlik startaplar sonining ko'payishi, bandlik darajasining oshishi va yangi biznes modellarining paydo bo'lishida muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar ushbu jarayonning asosiy cheklovlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarur. Faqatgina kompleks va tizimli yondashuv orqali raqamli iqtisodiyot global miqyosda inklyuziv va samarali rivojlanib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Benkler, Y. (2006). *The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom*. Yale University Press.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.
3. Mason, P. (2015). *PostCapitalism: A Guide to Our Future*. Allen Lane.
4. Munoz, J. M. (2020). *Digital Entrepreneurship and the Global Economy*. Routledge.
5. Perez, C. (2002). *Technological Revolutions and Financial Capital: The Dynamics of Bubbles and Golden Ages*. Edward Elgar Publishing.
6. Nambisan, S. (2017). *Digital Entrepreneurship: Toward a Digital Technology Perspective of Entrepreneurship*. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 41(6), 1029–1055.
7. Kraus, S., Palmer, C., Kailer, N., Kallinger, F. L., & Spitzer, J. (2019). *Digital Entrepreneurship: A Research Agenda on New Technology-Based Ventures*. *International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research*, 25(2), 353–375.
8. Li, F., & Whalley, J. (2021). *Global Trends in Digital Entrepreneurship: Evidence from Emerging Markets*. *Technological Forecasting and Social Change*, 170, 120866.

9. Nambisan, S., Wright, M., & Feldman, M. (2019). *The Digital Transformation of Innovation and Entrepreneurship: Progress, Challenges, and Key Themes. Research Policy*, 48(8), 103773.
10. OECD. (2023). *OECD Digital Economy Outlook 2023*. OECD Publishing, Paris.
11. World Bank. (2022). *World Development Report: Data for Better Lives*. Washington, D.C.
12. UNCTAD. (2022). *Digital Economy Report 2022*. United Nations Conference on Trade and Development.